



O'ZBEKISTON STANDARTLAR INSTITUTI

UZBEK INSTITUTE OF STANDARDS
УЗБЕКСКИЙ ИНСТИТУТ СТАНДАРТОВ

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Cho'pon-Ota k-si, 9"V" 100059 Tel: +998 (71) 202-00-11 (1705)

Veb-sayt: www.uzsti.uz E-pochta: info@uzsti.uz

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens: Tel: (71) 253-19-24 (133) Telegram bot: <https://t.me/UZSTI> murojaat_bot

2616/12-son

2026-yil 15-sentabr

Oliy ta'lim muassasalariga

2026-yilning 17-sentabr kuni soat 10-00 dan 13-00 gacha O'zbekiston standartlar instituti binosida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va bitiruvchilari uchun tashkil etiladigan standartlashtirish, metrologiya, laboratoriya sinovlarini o'tkazish va muvofiqlikni baholash (sertifikatlashtirish) hamda sohaga oid mutaxassislarni malakasini oshirish yo'nalishlarida ochiq eshiklar kuniga taklif etamiz.

Mazkur tadbir sohaga oid so'nggi yangiliklar, qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarga kiritilayotgan o'zgarishlar bilan tanishtirish, shuningdek xalqaro standartlar bilan ta'minlash borasida hamda mahsulot (xizmat) sifati bilan bog'liq muammolarning amaliy yechimlari yuzasidan savollarga javob olish imkoniyatini yaratish uchun tashkil etilmoqda.

Ochiq eshiklari kunida yoritiladigan savollar:

- ta'lim va rivojlanish - malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslari;
- hamkorlik - texnik qo'mitalarga a'zolik imkoniyatlari;
- ekspertiza - standartlarni professional ekspertizadan o'tkazish;
- ilm-fan - standartlashtirish sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar;
- sinov va tizimlar - mahsulotlar sinovi hamda menejment tizimlarini joriy etish;
- tadbirkorlarga ko'mak - muvofiqlikni baholashda amaliy va uslubiy yordam.

Savollarga malakali mutaxassislar javob берадилар.

Manzil: Toshkent shahri, Cho'ponota ko'chasi 9V-uy, 2-qavat (majlislar zali).

Hurmat bilan,

Direktor o'rinbosari



J.Murodov